

Ikromova Dilshoda

NamDPI maxsus pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: D.D.Oribboyeva

Annotatsiya: *Autizm sindromi butun dunyoda ken tarqalib borayotgan kasalliklardan biri bolib siz ushbu maqolada bu kasalik ning kelib chiqishaiga sabablar, bu kasalikni o'rgangan olimlar va ularning ishlari, bundan tashqari sog'lom bolalar psixalogiyasidagi jarayonlar va autizm sindromiga chalingan bolalar psixologiyasi bilan ham tanishishingiz mumki.*

Kalit so'zlar: *bolalar autizmi, avtoagressiya, Leo Kanner, Xans Asperger, psixalogik tashxis, neyrobiologiya, exolaliya, intellektual rivojlanish.*

Biz xar birimmiz atrofimmizdagi bolalar orasida xati xarakati boshqalardan ajralib tutadigan, o'zini boshqalardan olib qochadigan, atrofidagi hodisalarga reaksiya bildirmaydigan, hato o'z ismiga befarq bolgan bolalarni uchratishimmiz mumkin. Bunday bolalarni ko'pincha "autik" bolalar deb ham ataymiz.

AUTIZM-grekcha „AUTOS“ yani „o'zi“ degan manoni anglatadi. Reallikdan uzoqlashish, tashqi dunyodan ajralish va tashqi olam bilan komunikativ funksialarning buzilishi kabilarni o'z ichiga oluvchi sindrom hissobladi.

Autizm-bu muloqot ,ijtimoiy o'zaro ta'sir va takroriy xatti-harakatlar va cheklovlangan qiziqishlar bilan tavsiflangan neyrobiologik kasallikdir. Autizm belgilari ikki yoshdan oldin paydo bo'la boshlaydi. Autizmning birinchi alomatlaridan biri ko'z bilan aloqa qilishdan qochish bo'lganligi sababli,bola boshqa bolalar bian ham, ota-onasi bilan ham har qanday ko'z bilan aloqa qilishdan qochadi. Bu ko'pincha noto'g'ri tushiniladi „bola uyatchang“ degan manoda.

Autizmga chalingan bazi bolalarda avtoagressiya (o'z-o'zini shikastlash) alomatlari paydo bo'ladi, bu yerda vzqt o'tishi bilan ular keskin yomonlasha boshlaydi, chunki bola ulg'aygansari o'sadi va shikaslanish oqibatlari kattalashib boradi.

Sog'lom rivojlanayotgan bolaning 7 yoshgacha asosiy faoliyati o'yin hisblanadi. 3 yoshli bola o'yinchoqlarni xajmiga qarab ajrata oladi. Bolalar bilan turi o'yinlarni o'ynaydi, o'zi tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga xarakat qiladi,kopgina yangi o'yinchoqlarga qiziqish paydo bo'ladi. Autizim sindromiga chalingan bolalarda esa aksincha. Ular og'ir noqulayliklarni boshidan kechiradi. Agar kimdir ularga faol ravishda qo'l uzatsa , yugurib yashirinishi mumkin. Ular tengdoshlari bilan qanday o'ynashni bilishmaydi, ular do'stlikni ham bilmaydi va ularda do'stlar bo'lmaydi, ular yolg'izlikni afzal ko'radi.

Ushbu kasallikka qancha erta tashxiz qo'yilishi bemorlarga jamoa orasida o'z o'rnini topishga yordam beradi. Millat, elat, madaniyat, din va ijtimoiy tabaqa tanlamaydigan bu sindrom ayollarga nisbatan erkaklarda ko'p uchraydi.

Autizmning asosiy belgilari bir yoshdan to uch yoshgacha davirda to'liq namoyon bo'ladi. Ota-onalar quydagi belgilarga e'tibor berishlari kerak.

1. Bolaning ota –ona bilan bo'lishni yoqtirmasligi (qo'lga olishi, quchoqlashish va h. k)
2. Uch yashada ham bola nutqining rivojlanmaganligi;
3. Biron bir kishi bilan bo'lishdan ko'ra bir o'zi bo'lishni yoqtirishi ;(ular buyumlarni doim birxil tartibda qo'yib chiqadilar);
4. Tevarak –atrof bilan aloqada bo'lishni istamasligi, qiziqmasligi. Odatda bola nutqi xali rivojlanmagan bo'lsa xam u o'z istak xohishlarini imo-ishora harakat bilan bildiradilar. Autizm bolalarda bular kuzatilmaydi;
5. Bola ko'zingizga qaramaydi;
6. Bolani harakatlari imo –ishoralari hech narsani bildirmaydi asabiylashganini ko'rsatadi;
7. Bola bir to'nda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodalayotgandek gapiradi. Bola o'zi yaxshi gapira olmasa ham, uning aks-sado nutqi, ya'ni exolaliya-kimnidir ketidan qaytarish qobilyati yaxshi bo'ladi;
8. Odatdan tashqari idrok etish reaksiyalari masalan ovozdan qattiq qo'rqib tushish, malum hiddan tushkunlikka tushishi va h.k.

Autizmni ko'pchilik odamlar shezofreniya, apli zaiflik va bolalar psixozisi bilan adashtirishadi. Autizm sindromi bo'lgan bolalarda taktil yoki i sensor sezgilarining oshganligi qayd etiladi. SHubois ular odamlarning shovqinini, baland tovushlarni ko'tara olishmaydi. Autizmi bo'lgan bolalarning abilitatsiyasi hamda integratsiyasi bir qancha chora- tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bunda ko'proq ijtimoiy hamkorlik o'rnatilishi, ya'ni tibbiyot xodimlari, psixolog, defektologlar o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borganlaridagina muayyan natijaga erishish mumkin.

Baltimordagi Jans Xapkins universteti tibbiyot fakultetining bolalar psixatri Leo Kanner 1943-yilda muxim maqola yozgan (Neo Neuro Tribes) . Bu maqolda u kilinikasidagi 11 nafar bolani tvsiflagan, asosan obyektlarga e'tibor qaratgan, bir xillikka muxtoj yoki o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatadigan bolalar xarakterini o'rgandi. Ushbu yangi bolalardagi psixologik xodisaga nom berish uchun Kanner „Bolalar autizmi“ atamasini fanga kiritdi. Kanner buzulishning asosiy muammosi bolalarning (tug'ilishdan boshlab) odamlar va narsalar bilan oddiy munosabatda bo'la olmasligi haqida yozgan. Kannerning tadqiqotidagi bolalar bir xil obsesif istak bilan boshqalaridagi xatti-harakatlarni namoyish etdilar. Ko'pgina bolalar ajoyib xotiraga ega edilar va osongina she'rlar va qo'shiqlar matnlarini o'qishni o'rganishlari yoki ismlarining uzun ro'yxatini yoki tasodifiy faktlarni o'rganishlari mumkin edi.

Shundan so'ng atiga bir yil o'tgach Avstriyaning Vena universteti pediatri Xans Asperger o'z kilinikasida bir xil xususiyatga ega bo'lgan bir gurug bolalarni tavsiflovchi maqola yozdi. Deyarli 40 yil davomida ingliz tiliga saslangan autizm sindromini organayotgan jamoa bu haqida xech narsa bilmas edi. Keyin 1981-yilda Buyuk Britaniyaning Londondagi Psixiatriya institutida bolalar psixatori Lorna Ving dunyo etborini jalb qiladigan maqolani nashir qili. Autizm hamjamiyati Asperger maqolasining soyada qolib ketishiga uning nemis tilida yozilgani sabab bo'lgan deb taxmin qilishadi.

Kasallikka doir „autizm“ terminini fanga 1912-yilda E.Bleyler kiritgan. Uning fikricha xsta odam o'z olamida yashaydi, fikirlashi boshqalarga o'xshamaydi, uning xati -harakatlari

real voqelik bilan bog'liq emas degan fikirlarni aytib o'tgan. Bu kasalikka bugugi kunda ham davvo topilgani yo'q, kelib chiqish sabablari ham anoq emas.

Bugungi kunda olimlar autizm sindromiga chalingan shaxslarni 4 guruxga bo'lib o'rganishmoqda. Bular quydagilarni o'z ichiga oladi.

1-guruh: Ilk yoshdagi bolalar autizmi (2 yoshgacha bo'lgan bolalar)

Ilk yoshdagi bolalar autizmida bolalar rivojlanishi 4 xil turga bo'linadi. Bazi bolalar atrofidagi voqealarga butunlay etiborsiz bo'ladi. Doimiy hayot tarzidan chetga chiqqanda qo'rquvni agressiyani kuzatish mumkin bo'ladi. Ular doim bir xil qaytariluvchi harakatlarni bajarishadi. Ular yillar davomida faqatgina bir mavzuda suxbatlashishlari, bir xil syujetli rasim chizishlari mumkin. So'nggi guruhga kiruvchi bolalar muloqotga kirishishi mumkin. Lekin bu muloqotga kirish jarayoni qiyin amalga oshadi.

2-guruh: Bolalar autizmi (2-11 yoshdagi bolalar).

Bolalar autizmida ham ilk yoshdagi bolalar autizmida uchraydigan belgilar kuzatiladi. Ular bir so'z yoki musiqani doimiy ravishda takrorlab yurishadi, ko'nikma va malakalarni egallashga juda qiynalishadi.

3-guruh: O'smirlar autizmi (11-18 yoshdagi bolalar).

Bu yoshdagi bolalar eng oddiy muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Lekin ko'proq yolg'iz qolishni xohlashadi. Ko'p hollarda ular ruhiy tushkunlik holatida bo'ladilar.

4-guruh: Kattalar autizmi

Kattalar autizmida shaxsda ruxiyatning jiddiy buzulishi kuzatiladi. U butunlay o'z olamida yuradi, tashqi olamdagi viqea va hodisalarga o'ta be'etibor bo'ladi.

Oxirgi 10 yil ichida autizm sindromiga chalingan bolalar soni 10 barobarga oshgan. Bu sindrom avvaliga 100 000 kishidan 3-4 namoyon bo'lgan bo'lsa, 2000- yilga kelib 10000 kishidan 5-20 tasida uchragan, 2008 -yilga kelib esa, har 150 boladan biriga autizm tashhisi qo'yilmoqda.

L.S.Vigotski eng mashxur psixolog va faylasuflardan biridir. Olim o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab ilmiy g'oyalar bevosita bolalarning psixik taraqqiyotiga oitdir. L.S.Vigotskiy izlanishlari oily psixik funksialar ya'ni ixtiyoroy xoyira va diqqat, tafakkur, irodaviy xarakterlarni bevosita miyyaing faoliyati bilan tushuntirib bo'lmasligi, ushbu funksialarning mohiyatini tushunish uchun ularning ildizini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ko'rsatadi.

Shunday ekan xulosa qilib aytishimiz mumkinki Albert Eynshteyn, Mikelanjebo, Isak Nyuton, Motsart kabi daxolarga ham xuddi shu tashxis qo'yilgan. SHunga qaramay ular nafaqat normal hayot kechirishgan, balki aqlli va istedodlari bilan shuxrat ham topgan shxslardir. Bunday sindromga chalingan bolalarni vaqtida aniqlab ularga to'g'ri korreksion ishlarni amalga oshirilsa ular ham shunday marralarni egallashi mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.U.Xamidova. Maxsus pedagogika. Toshkent 2018
2. Z.T.Nishonov, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboevva . Bolalar psixologiyasi. Toshkent . 2017
3. Autizm-Vikipediya. <https://sq.m.wikipedia.org>

4. Bolalarda autizm diagnostikasi va ijtimoiylashuvdagi muammolar.
<https://ppmedu.jdpu.uz>
5. Leo Kanner, 1894-1981-the Autizm Historiy Project-110Blogs. Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.. Uoregon.
6. Autizm sindromiga chalingan bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni oldini olish va korreksiyalash. [https://presedu. Jdp](https://presedu.Jdp)
7. Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarning psixologik omillari. Avezova Durдона . <https://ijtimoiy.uz>